

**Boshlang`ich sinf o`quvchilariga xorijiy tilni interfaol usullar orqali
o`rgatish**

SAMDCHTI

Ingliz tili 2 fakulteti

2-bosqich talabasi

E.Z.Fayzullayeva

Ilmiy rahbar:N.N.Zubaydova

@fayzullayevaezoza0204@gmail.com

Tel:+998954448504

Anotatsiya: Bolalarga xorijiy tillarni o`rgatishda ularda bo`lgan qiziqishlarni inobatga olgan holda, psixologik jihatdan yondashish eng samarali usul hisoblanib ularning jamoa bilan ishlash ishtiyoqini oshiradi. Shuningdek, xorijiy tilni bolalarga turli xil metodlar orqali o`rgatish va ularni e`tiborini jalb qilish uchun interfaol usullarga ko`proq urg`u berish lozim.

Kalit so`zlar: psixologik yondashuv, umumiy o`yinlar nazariyasi, tinglab tushunish.

Abstract: Taking into account the interests they have in teaching foreign languages to children, the psychological approach is considered the most effective way to increase their desire to work with a team. Also, it is necessary to give more emphasis to interactive methods to teach foreign language to children through different methods and to attract their attention.

Key words: psychological aproach, general game theory, listening.

Davr talabiga binoan, yoshlarda xorijiy tillarni o`rganish ishtiyoqi ortib bormoqda va hozirgi kunda chet tillarini o`rgatish jarayoni boshlang`ich sinflardan boshlanmoqda.

Boshlang`ich sinf o`quvchilariga ingliz tilini o`rgatishni yanada takomillashtirish va ularni chet tillariga bo`lgan qiziqishini yanada oshirish uchun

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

turli xil qiziqarli o`yinlar tarzida o`qitish va shu bilan birga og`zaki nutqini ham oshirish amalda ko`rib chiqilmoqda.

Barchamizga ayonki, kichik yoshdagi maktab o`quvchilarini o`qitish shuningdek, ularning psixologiyasiga qarab darsda muloqotga kirishish katta yoshdagi o`quvchilarga nisbatan ancha murakkab jarayon. Ushbu masalada o`qituvchilar kashfiyotchi ,motivator, instructor bo`lish bilan birga bola ruhiyatini tushunadigan psixolog ham bo`lishi lozim. Qiziquvchanlik va motivatsiya psixologik xususiyatlar bilan chambarchas bog`liq. Dars jarayonida o`quvchilar bilan samimi, erkin ,muloqotda bo`lish, ularni shoshirmsandan to`g`ri tushunib borish, o`yin tariqasidagi tabiiy muhitni yaratish, bolalarning qobilyatini xolisona tarzda baholash muhim omillardan biri hisoblanadi.

Umumiy o`yinlar nazariyasiga ko`ra, mavjud barcha o`yin turlari bolalarga yangi tilni o`zlashtirishga bo`lgan ishtiyoqini orttirad. Til o`rganish uchun interfaol o`yinlar bolaga ijodiy qobilyatini erkin holda namoyon etish imkonini beradi. Odatda, muayyan qoidalar orqali tashkil qilingan o`yinlar tartibli kechadi. Ammo bu jarayon va taqiqlar boshlang`ich sinf bolalarini tezda zeriktirib qo`yadi. Bolalar nutqiy faoliyatining rivojlanishida leksik o`yinlarning ahamiyati kattadir. Chunki, bunday o`yinlar bola nutqining o`sishi, fikrlash qobilyatini rivojlanishi, bilim saviyasi kengayishi va xotirasi yanada mustahkamlanishiga yordam beradi.

Tinglab tushunish qobilyatini oshirish uchun boshlang`ich sinf o`quvchilari bilan ko`plab musiqaviy metodlardan foydalanish va jamoa bo`lib ishslash bolalarning chet tilini o`rganish jarayonini qiziqarli bo`lib o`tishini ta`minlab beradi. Musiqadan so`zni toping- bu o`yinda bolalarga mo`ljallangan musiqani matni beriladi asosan hayvonlar bilan bo`lgan suhbatlar tushirilib qoldiriladi va ular shu musiqani eshitish davomida tushirib qoldirilgan so`zni topishi lozim. Dialoglar orqali- bu asosan ertaklarda bo`ladigan dialoglar bilan hayvonlarning nomini topish va jamoa bo`lib ishslash.

Xulosa:

Demak << o`qituvchi chet tili darslariga psixologik jihatdan yondashishi va o`quvchilardagi ichki imkoniyatlarni turli xil interfaol o`yinlar orqali yuzaga

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

keltirishi kerak>> Bu esa o`qituvchilarning o`z navbatida yuqori tajriba mahoratiga bog`liqdir. Interfaol o`yinlar bolalarning til o`rganishga bo`lgan qiziqishlarini yetarli darajada oshiradi, shu sababli pedagoglar o`zlarining dars jarayonida ulardan foydalanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Nishonova S Komil insonni tarbiyasi: o`rta maxsus, kasb-hunar muassasalari uchun qo`llanma- T: Istiqlol,2003
- 2.Xaydarov F.I, Xalilov N.I. Umumiy psixologiya. Darslik,-T:2010
- 3.Saidaxmedov N. Pedagogik texnologiyalar. -T.:”Fan “,2006.
4. Tolibov U.K.,Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari.- T:”Fan”,2006.